

“Yosh tadbirkor” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish TARTIBI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”**da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” **2024-yil 21-fevraldagi Farmonining 4-bandiga** muvofiq **“Yosh tadbirkor” tanlovi** (keyingi o‘rinlarda – tanlov deb yuritiladi) tashkil etilmoqda.

I. “Yosh tadbirkor” tanlovi yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug‘ullanish uchun mavjud imkoniyatlarni targ‘ib qilishga qaratilgan tanlov hisoblanadi.

II. Tanlovning maqsadi

Tanlovning maqsadi tadbirkorlikning turli sohalarida chin ma‘nodagi bilimli, **salohiyatli va yetakchi yoshlarni kashf qilish**, ularning **eng quyi bo‘g‘indan** shakllantirilgan **sara taklif va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash**, yoshlarning **ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda** faol ishtirokini ta‘minlash, mamlakatda amalga oshirilayotgan **islohotlarni targ‘ib qilish**, O‘zbekiston rivoji uchun xizmat qiladigan, yoshlar tomonidan ilgari surilgan **innovatsion g‘oyalarni saralash** va ushbu g‘oyalarni **hayotga tatbiq qilish** choralarni ko‘rishda ko‘maklashishdan iborat.

III. Tanlov ishtirokchisi – **18** yoshga to‘lgan va **30** yoshdan oshmagan (**31** yoshga to‘lmagan), tanlovda qatnashish istagini bildirib **Yoshlarportali.uz** saytidan ro‘yxatdan o‘tgan, yangi g‘oyalar asosida ishlab chiqilgan **innovatsion, startup va biznes loyihasiga ega da‘vogar**;

IV. Tanlov tashkil etish va o‘tkazish

Tanlov **to‘rt bosqichda** (mahalla, tuman (shahar), hudud va respublika) tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

1. Tanlovning **mahalla bosqichida** tanlovda ishtirok etish istagidagi **yoshlar ro‘yxatlari shakllantiriladi**.

2. Tanlovning **tuman (shahar) bosqichida**:

- tanlov ishtirokchilari oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida o‘z biznes loyihalari uchun zarur kredit mablag‘lari ajratilishini so‘rab **oilakredit.uz** manzili orqali ariza qoldiradi.

- arizalari **skoring tizimi** orqali ijobiy baholangan va mahalladagi hokim yordamchilari tomonidan tasdiqlangan ishtirokchilar uchun moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash bo‘yicha (20 ta savoldan iborat) **test sinovi** o‘tkaziladi.

Test sinovida **60 ball** va undan yuqori ball to‘plagan ishtirokchilar hududiy bosqichga o‘tkaziladi.

3. Tanlovning **hududiy bosqichida** (biznes loyiha taqdimoti) eng yuqori ballarni qo‘lga kiritgan **5 nafar** ishtirokchilar respublika bosqichiga yo‘llanma oladi.

4. Tanlovning **respublika bosqichiga** yo‘llanma olgan ishtirokchilar **“Yoshlar oromgohi”**da **2 kun** davomida tadbirkorlik sohasiga oid **o‘quv**

seminarida ishtirok etadi va seminar yakunida o'zlarining biznes loyihalarini tanlov komissiyasiga taqdimot qiladi.

Tanlovning respublika bosqichida ekspertlar guruhi tomonidan, eng yuqori ballarni to'plagan **1,2 va 3-o'rin** g'oliblari aniqlanadi.

V. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

Tanlovning **tuman (shahar)** bosqichida belgilangan shartlardan ijobiy o'tib, moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash testida **60 ball** va undan yuqori ballarni qo'lga kiritgan ishtirokchilarga **hududiy bosqichga yo'llanma** beriladi.

Tanlovning **hududiy bosqichida** eng yuqori ballarni qo'lga kiritgan **5 nafar** ishtirokchilarga **respublika bosqichiga yo'llanma** taqdim etiladi.

Tanlovning **respublika bosqichida** g'olib va ishtirokchilar quyidagicha taqdirlanadi:

birinchi o'rin – 50 mln so'm pul mukofoti, chet elda malaka oshirish uchun yo'llanma, biznes loyihasi uchun imtiyozli kredit ajratishga tavsiyanoma;

ikkinchi o'rin – 40 mln so'm pul mukofoti, chet elda malaka oshirish uchun yo'llanma, biznes loyihasi uchun imtiyozli kredit ajratishga tavsiyanoma;

uchinchi o'rin – 30 mln so'm pul mukofoti, chet elda malaka oshirish uchun yo'llanma, biznes loyihasi uchun imtiyozli kredit ajratishga tavsiyanoma;

Respublika bosqichida ishtirok etgan **67 nafar** ishtirokchilarga **biznes loyihasi uchun imtiyozli kredit ajratishga tavsiyanoma** hamda esdalik sovg'alari taqdim etiladi.